



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 1-iyul

**03-05/15-8036-son**

**Bojxona brokerlari uyushmasi**

Bojxona qo‘mitasi 2026-yil 15-iyun kuni Bojxona qo‘mitasida bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotda yo‘llangan murojaatingizni ko‘rib chiqib, quyidagilarni ma‘lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi PQ-4297-son qaroriga asosan BMTning Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va elektron ish amaliyotlari bo‘yicha markazi tomonidan ishlab chiqilgan “yagona darcha” mexanizmini yaratish bo‘yicha tavsiyalar va yo‘l-yo‘riq tamoyillari mezonlariga javob beradigan “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi 2020-yil 1-yanvardan amaliyotga tatbiq etilgan.

Olib kelingan tovarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tizimga kiritilganda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab etiladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlar uchun ariza berish imkoniyati joriy etilgan.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda talab etiladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va sertifikatlar to‘g‘risida “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmati orqali oldindan ma‘lumot olinishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda PF-250-son Farmoniga asosan karantin nazorati ostidagi tovarlarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish uchun taqdim etilayotgan bojxona yuk deklaratsiyasida karantin ruxsatnomasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettirish talab qilish bekor qilinganligini ma‘lum qilamiz.

**Rais o‘rinbosari**



**N. Musamuxamedov**